

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## ISLOMIY TUSHUNCHALAR ASOSIDA SHAKLLANGAN OBRAZLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

**Shohista Shodmonova Rauf-qizi**

*Guliston davlat universiteti Adabiyotshunoslik yo`nalishi*

*2-kurs magistri*

[shohistashodmonova3318@gmail.com](mailto:shohistashodmonova3318@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostonida islomiy tushunchalar asosida shakllangan obrazlardan foydalanish mahorati va buning badiiy asarga ta’siri masalalarini o‘rganadi. Bundan tashqari islomiy mifologik obrazlar va ularning badiiy asarlarda yashashi, shakllanishi kabi muammolar haqida ham tushunchalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ko‘hi Qof, Bog‘i Eram, anqo, Azroil, do‘zax, behisht, mifoantroponim, mifoornitonim.

**Abstract:** This article studies the mastery of using mythological images based on Islamic concepts in Saykali’s epic poem “Bahrom and Gulandom” and the issues of their impact on the work of art. In addition, concepts are given about Islamic mythological images and their existence and formation in works of art.

**Keywords:** Kohi Qaf, Bogi Eram, anqo, Azrael, hell, paradise, mythoanthroponym, mythoanthroponym.

O‘lkamizga VII-VIII asrlardan boshlab islom dinining yoyilishi munosabati bilan keng ommalasha boshlagan islomiy-diniy manbalar va adabiyotlar o‘zbek folklori va adabiyotining syujet qamrovi hamda obrazlar tizimining g‘oyatda boyishiga asos bo‘lgan. O‘shandan boshlab badiiy adabiyotimiz shakl, ma’no va uslub jihatdan ham o‘zgacha tus ola boshladi. Personajlar, syujet liniyalari, konfliktlar tizimi va hatto g‘oyaviy-badiiy jihatlariga ham ta’sirini o‘tkazgan diniy qarashlar deyarli barcha asarlarda kuzatiladigan obrazlarning paydo bo‘lishiga olib kelgan. Islomiy e’tiqodlar bilan bog‘liq mifologik tasavvurlar va afsonalarning poetik ko‘chimi natijasida yuzaga kelgan mifologizmlarga o‘sha davr asarlarida uchrovchi Ko‘hi Qof, Bog‘i Eram, anqo, Azroil, do‘zax, behisht, g‘ul kabi mifologemalarni poetik obraz va detallar sifatida kiritilganini ko‘rishimiz mumkin.

Sobir Sayqaliy ham “Bahrom va Gulandom”ida islomiy tushunchalar asosida shakllangan obrazlardan ko‘p o‘rinlarda tasvir obykti sifatida foydalangan. Bu usul orqali u poetik ifodaning an’anaviy shaklini qollashga erishgan va din – folklor – adabiyot munosabatlarini parallel va kesishgan chiziqlarda ifodalay olgan, deyishimiz mumkin. Bunday obrazlar asarda ko‘proq muxammas va g‘azal janrlarida kuzatiladi. Ularda belgining qanchalik yuksak ahamiyatga ega ekanligini ifodalash uchun “anqo”, “Bog‘i Bihisht”, “Hazrat Hizr” kabi istiora-yu, talmehlardan foydalanilgan.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Masalan, Bahrom ilk marta Dilorom suratini ko‘rib oshiq bo‘lib qolganda uning ta’rifini bayon qilgan cholning tilidan aytilgan muxammasda yuqoridagi obrazlar orqali boboning ichki kechinmalari, ahvoloti beriladi:

So‘rdim eldin: “”Bu paridur, ko‘zlara manzur erur,

Yoki jannatdin adoshib munda tushgan hur erur?”

Dedilar: “Huru pari yo‘q, duxtari fag‘fur erur”,

Kun chiqardin kun botishqa husn aro mashhur erur,

Hasratidin yoqa vayrondur tamomi beku xon...<sup>1</sup>

Yuqoridagi misralarda tajohil ul-orif qilayotgan shoir yorning g‘oyati go‘zalligini qanday ta’riflashni bilmagan kishidek, uni har xil afsonaviy imsellarga o‘xshatmoqda. Mumtoz adabiyotda tajohil ul-orifona deb ataladigan ajoyib she’riy san’at bo‘lib, unda shoir o‘zini bilmaslikka olib savol bilan murojaat qiladi. Xuddi, “Yoki jannatdan adoshib munda tushgan hur erur?” degandek. Jannat – barcha musulmon olami orzu qiladigan, unda faqatgina ezgulik va gozalliklar mujassamligi ayon bo‘lgan maskan. Diloromni ana shu yerdan tushib kelgan hur, ya’ni farishtaga qiyoslash – uning haddan tashqari chiroyli va yer yuzida unga teng keladigani yo‘qligini ifodalash edi. Ayni shu muxammasning oxirgi bandida:

Tan bu qofi g‘urbat ichra be nishon anqosidur,

Jon bu joduning fidoi nargisi shahlosidur,

Muncha mustag‘ni etan bu butni isg‘nosidur,

Sayqaliy dunyoda odam o‘g‘lini rasvosidur,

Kim yomonlardin yomonroq bo‘lsa andin ul yamon.<sup>2</sup>

Bu bandda ko‘rib turganingizdek, bir nechta mifologik obrazlarga ishora bor. Masalan, anqo, Ko‘hi Qof. Mifologiya fani sohasida qush ko‘rinishidagi mifologik obrazlar “mifoornitonimlar” deb yuritiladi va bularga “Anqo”, “Semurg”, “Samandar” kabi qushlarni kiritishimiz mumkin. shular orasidan Anqo qushi islomiy qarashlar asosida shakllangan bo‘lib, Ko‘hi Qofda yashaydigan afsonaviy qush, barcha qushlarning podshosidir. “Navoiy asarlari lug‘ati”da Anqo so‘ziga shunday ta’rif berilgan: “Anqo oti bor, o‘zi yo‘q afsonaviy qush (go‘yo qushlarning podshosi bo‘lib, Ko‘hi Qofda yashar emish):

Tilar ko‘nglum qushi Anqodin o‘tsa nori yuz vodiy,

Munungdek sayr etarg‘a Qofdin ortuq sabotim bor.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Sayqaliy. Bahrom va Gulandom. – Toshkent: Fan, 1960. 33-b

<sup>2</sup> O‘sha kitob 34-b

<sup>3</sup> Навоий асарлари луғати. – Тошкент, 1974. – Б.53

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Sayqaliyning muxammasida ham shu holatga ishora bor, ya’ni “tanim bu Qof tog‘ida nishonsiz anqo kabidir” deb nola qiladi. Piri Jahongard deb atalgan kishi Diloromning ishqida butun dunyosidan – bolalari, oilasi, ishi va asosiysi, hamma qatori oddiy turmush tarzidan ayrilgani va yorning vasliga yetishish uchun barchasidan kechgani, oxir oqibatda, shu ko‘yga tushib qolgani tavsifini mana shu usulda ifodalaydi. Bahromning ham ishq tushib qolganini sezadi va bu yo‘ldan qaytishi uchun uni ogohlantirmoqchi bo‘ladi:

Yigito, qayt! Havas qilma bu - g‘urbat.

Yigitlik mavsumi – davron g‘animat.<sup>4</sup>

Ko‘hi Qof , anqo timsollaridan maqsad esa bu yo‘lda o‘zni yo‘qotishga-da tayyor turishga ishora bo‘lib xizmat qiladi. Joy nomlari bilan bog‘liq mofo-obrazlar “mifoantroponimlar” deb atalib, yuqoridagi Ko‘hi Qof yoki Bog‘i Eram kabilar shular jumlasidandir. Bunday nomastikalarning badiiy asarlarda qo‘llanilishi uning badiiy-estetik qiymatini oshishiga xizmat qiladi. Yuqoridagi badiiy ifoda ham bizga oshiqning qanchalik og‘ir vaziyatda ekanini estetik joziba bilan yetkazib beryapti.

Bahromning Sayfur bilan bir bazmda o‘tirganda aytgan muxammasida ham islomiy tafakkur obrazlaridan samarali foydalanadi:

Kel, ey tan, manga ul jononasiz joning kerakmasdur,

Ke ul sarvi ravonsiz bo‘stoning ham kerakmasdur,

Xudoyo, andin o‘zga huru g‘ilmoning kerakmasdur,

Jamoling ko‘rmasam, Firdavs rizvoning kerakmasdur,

Nigorim bo‘lmasa hosil uray boshimg‘a jannatni...<sup>5</sup>

Sayfur Bahromni mehmon qilish uchun Bog‘i Eramdek joyga, undan o‘tib yana boshqa bir bog‘ga olib kirib, u yerda naq behishtmonand ko‘shkka olib kiradi:

Ulug‘ sangporalardin erdi hishti

Magar bir manzili neki bihishti.<sup>6</sup>

O‘sha yerda Sarvoso bir qancha parizodlar bilan uning xizmatida bo‘ladi, lekin shunday vaziyatda ham Bahrom Diloromni yod etib, yuqorida keltirilgan muxammasni o‘qiydi. Uning uchun Diloromsiz hech qanday bo‘stonlar-u, rizvonlar kerak emasligini, jamolini ko‘rmasa jannatni ham istamasligini aytib o‘tadi. Agar Sayqaliy Bahromning dilidagilarni Rizvon bog‘isiz yoki u o‘tirgan joyni bihishtga tenglashtirishsiz ta’riflaganda, ehtimol, ko‘ngil kechinmalari qay darajada jiddiy va kuchli ekanini his qilmagan bo‘lardik. Chunki islomiy qarashga ko‘ra, Rizvon –

<sup>4</sup> O‘sha kitob 37-b

<sup>5</sup> O‘sha kitob 58-b

<sup>6</sup> O‘sha kitob 54-b

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

jannatdagi bog‘larning barchasining umumiy nomi sanaladi. Bundan tashqari, Bahrom uchun Dilorom huri g‘ilmon-u parilardan ham azizroq ekani ifodalangan. Yana shu kabi yorga oshiqlik holati berilgan g‘azallaridan birida:

Hazrat Hizr ichmas erdi obi havondin dami,  
Zavq qilsa bu sani la’li zilolingni ko‘rub...

deya, folkloristik obrazlardan biri Xizrni misol obyekti sifatida keltirib ketadi. Mana shunday afsonaviy shaxs nomlari mifologiyada mifoantroponimlar deb nomlanib, ularning keltirilishiga sabab, asosan, hayotlariga oid afsona yoki rivoyatlarning berilayotgan vaziyatga mosligiga bog‘liq bo‘ladi. Yuqoridagi misralarda ham barhayotlik suvini ichganligi uchun mangu tirik mifologik homiy<sup>7</sup> hisoblangan Xizr agar sening la’li ziloling – labingning shirinligidan zavq qilganida, obi hayot – tiriklik suvini ichmas edi deb yorni tiriklik suvidan ham zarurroq va zavqliroq ekanini izhor qilgan. Darvoqe, Xizr – o‘zbek mifologiyasida odamlarga yaxshilik qiladigan, ezgu homiy sifatida ularning mushkullarni oson qilib, qut-baraka va mo‘l hosil baxsh etadigan an’anaviy asotiriy personajlardan biri. Xalqimizning mifologik tasavvurlariga ko‘ra, Xizr ajdodlar ruhining timsoli bo‘lib, u qiyin ahvolda qolgan kishilarga madad beruvchi afsonaviy homiy, donishmand oqsoqol va obi hayot chashmasining suvidan ichganligi uchun doimiy barhayotlikka erishgan ezgu kuch hisoblanadi.<sup>8</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘atida keltirilishicha, Xizr arabcha so‘z bo‘lib, “yashillanmoq, yashil tusga kirmoq” ma’nosini bildiradi. Islomiy rivoyatlarda hayot bulog‘idan “obi hayot” ichib, umri boqiy bo‘lgan taqvodor shaxs obrazini bildiradi. Xalqning ishonch-e’tiqodiga ko‘ra, u og‘ir ahvolda qolgan kishilarga chol, suvori yoki yo‘lovchi ko‘rinishida uchrab, ularning mushkulini oson qiladi. Xi’ening mushkulni oson qilishi haqidagi tushuncha Bahromga Diloromning ta’rifini bergan cholning nasihatlarida uchraydi:

...Chunki bul maydona kirding, ey shaho, mardona bo‘l,  
Shoyad ul xizri xudo etkay saning tarbiyating...<sup>9</sup>

Voqealar rivoji davomida shahzoda Gulandom bilan ilk bor suhbatlasha olish imkoniyatiga ega bo‘lgan vaqtida dastlab Dilorom uni xushlamaydi. Bahrom esa uning ko‘nglini olishga, unga xushomad qilishga harakat qiladi:

Aydi shahzoda: - Bihishti jovidonim san maning,  
Havz kavsardin xabar aytur labi qirmizlaring...<sup>10</sup>

<sup>7</sup> M. Jo‘rayev, D.O‘rayeva.. O‘zbek mifologiyasi.darslik – T.: O‘qituvchi, 2019. – 558 bet.

<sup>8</sup> M. Jo‘rayev, D.O‘rayeva.. O‘zbek mifologiyasi.darslik – T.: O‘qituvchi, 2019. 300-b.

<sup>9</sup> O‘sha kitob 37-b

<sup>10</sup> O‘sha kitob.132-b

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Ko‘rinib turganidek, ushbu baytda Bihisht, Havz Kavsar nomlari keltirilmoqda va ularning rivoyatlardagi ma’lumotlariga ega bo‘lmagan inson buni shoir maqsad qilgan holda tushunmasligi, tabiiy. **Kavsar** (arab. mo‘l-ko‘l) – islomga ko‘ra jannatdagi ajib bir daryo yoki hovuzning nomi Qur’oni karimdagi 108-sura ham Kavsar deb ataladi. Tafsir va hadislarda aytilishicha, Kavсарning suvi asaldan totli, qor va sutdan oq bo‘lib, undan ichgan kishi abadiy tashnalik bilmaydi. Shuningdek, qiyomat kuni jannat nasib etgan mo‘min-musulmonlar mazkur Kavсар suvidan ichishlari to‘g‘risida bashorat beriladi.<sup>11</sup> Demak, Sayqaliyning bu talmehdan foydalanishining asosiy sababi Diloromning lablari o‘sha Kavсар suvlaridek totli ekanini yoriga mukammal yetkazib bera olish edi. Biroq Dilorom boshida ro‘yxushlik bermay, rad javobini beraveradi. Bahrom esa taslim bo‘lmasdan, usiz yashay olmasligi va uning o‘rniga parilar kelganda ham olmasligini qat’iylik va sabot bilan takrorlaydi. Dilorom uchun hatto o‘limga ham tayyor ekanini izghor qiladi. Bahromning sabri va qat’iyatligiga tan berib:

Aydi Gulandom:- Azizim, ofarin bardoshingga,

Ming jonim bo‘lsin fido durdonayi ko‘z yoshingga.

Har murod-u maqsading bo‘lsa, karam etsun karim,

Boz tushgay soyayi boli humoyin boshinga...<sup>12</sup>

- deb afsonaviy Humo qushi orqali unga baxt, tole’ tilaydi. Ya’ni o‘zbek mifologiyasida Humo qushining baxt va davlat semalarini ifodalashidan foydalanib, Dilorom tilidan baxt qushining Bahromning boshiga qo‘nishini tilamoqda. Bahromning Diloromga javobida yana bir obrazga duch kelamiz:

Aydi shahzoda:- Ko‘zum yoshi fidoyi maqdaming,

Mustajob etkay xudovandim Masihoday daming.<sup>13</sup>

Ma’lumki, Iso timsoli mumtoz adabiyotda Masih “nafasi jon kirgizuvchi” Ruhulloh “Allohning ruhi” sifatida talqin etiladi. Bunga sabab Olloh tomonidan Iso alayhissalomga berilgan quvvatdir. Odatda, har safar shoir ifodalayotgan oshiq ma’shuqaning ishqida turli to‘siqlarga uchraydi, lekin oshiq ana shu to‘siqlarni har qanday qiyinchilikda bo‘lsa ham yengib o‘tishga harakat qiladi. Ma’shuqa ishqida iztirob chekkan oshiq yordan keladigan yaxshi xabar – mujda umidi bilan yashaydi. Keyinroq ma’shuqa lutf marhamat ko‘rsatib, oshiq huzuriga qadam ranjida qiladi. Bu bilan jonsiz oshiqning ruhiga qaytadan jon bag‘ishlaydi. Ba’zi o‘rinlarda shoir ma’shuqaning hatto so‘zlari ham jon baxshilik xususiyatiga ega ekanligini e’tirof

<sup>11</sup> O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

<sup>12</sup> O‘sha kitob 134-b

<sup>13</sup> 134-b

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

etadi. Yuqoridagi misralarda ham Bahromning ta’rificha, Diloromning qadamlariga ko‘z yoshlari fido, joniga esa uning jon bag‘ishlovchi so‘zlari davodir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostoni nafaqat shoirning poetik mahorati, balki uning islomiy rivoyat va afsonalardan anchagina xabardor ekani va e’tiqodli, iste’dodli ijodkor ekanining isbotidir. Personajlarninig ichki kechinmalarining o‘quvchiga ravon va tushunarli tarzda yetib borishi uchun har xil ramziy obrazlar, tasvir obyektlaridan foydalana olgani ham asarning badiiyatini go‘zallashtirgan, ham shoirning mahoratini belgilab bergan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayqaliy. Bahrom va Gulandom. – Toshkent: Fan, 1960. – 224 b.
2. M. Jo‘rayev, D.O‘rayeva.. O‘zbek mifologiyasi.darslik – T.: O‘qituvchi, 2019. – 558 bet
3. Навоий асарлари луғати. – Тошкент, 1974. – 656 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдли. IV жилд (Мадвалиев А. таҳрири остида). – Т.: ЎзМЭ, 2008. – 608 б.
5. О‘зМЕ. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.